

ILMIY ISH

Narzullayeva Munojat Salimjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Talabasi

Ilmiy rahbar : Yuldasheva S.F

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti O'qituvchisi

Annotatsiya: Ilmiy maqola – bu mustaqil ilmiy tadqiqot bo'lib, u dolzarb ilmiy muammo bo'yicha o'z fikrlarini bayon qilishdir. Yuqori maqsadni ko'zlagan insonlar uchun ilmiy maqolaning o'rni judayam muhim ahamiyat kasb etadi.

Abstract: A scientific article is an independent scientific research, which is an expression of one's thoughts on an actual scientific problem. The role of a scientific article is very important for people who have a high goal.

Аннотация: Научная статья – это самостоятельное научное исследование, представляющее собой выражение своих мыслей по актуальной научной проблеме. Роль научной статьи очень важна для людей, которые имеют высокую цель.

Tayanch so'zlar: Potential, tadqiqot sohasi, predmet, obyekt, tadqiqot.

Key words: Potential, field of research, subject, object, research.

Ключевое слово: Потенциал, область исследования, предмет, объект, исследование.

Ilmiy maqolalarda zamonaviy ilm-fan sohalarining nazariy yoki amaliy asoslarini rivojlantirishga tadqiqotchining shaxsiy hissasi nimadan iborat ekanligi iloji boricha yorqinroq ifodalanadi.

Ilmiy maqolaning sarlavhasi qisqa va lo'nda bo'lishi, ayni vaqtda imkon qadar mohiyatan material mazmunini aks ettirishi lozim. Maqolaning dastlabki qismida o'zbek, rus va ingliz tillarida qisqa va lo'nda shakldagi annotatsiya (maqolaning qisqacha mazmuni) hamda kalit so'zlar keltirilishi lozim. Ilmiy maqola, odatda, tuzilish jihatidan bir nechta qismga bo'linadi. Maqolaning kirish qismida muhokama etilayotgan mavzuning dolzarbligi ta'riflanadi va asoslab beriladi, shuningdek, tadqiqot sohasi, obyekt va predmeti, tadqiqotning maqsadi, vazifalari muammo sifatida qo'yiladigan masalaning yechimi, taklif etilayotgan yechimning nazariy va amaliy ahamiyati haqida fikr bildiriladi. Maqolaning asosiy qismida olib borilgan ilmiy izlanish doirasida qo'llanilgan tadqiqot uslublari ta'riflanadi, tadqiqotning to'plangan va ilmiy jihatdan tahlil qilingan umumiy natijalari keltiriladi. Odatda, bu qism hajm jihatdan maqolaning 80-90% ni tashkil etadi. Bundan tashqari, asosiy qismda olingan natijalarning ilmiy jihatdan yangiligi va amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish natijalari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Maqolaning yakuniy qismida kirish qismida qo'yilgan masalaning yechimi sifatida baholanadigan ilmiy-nazariy, amaliy ahamiyatga molik

xulosa va tavsiyalar keltiriladi. Ilmiy izlanish nima maqsadda, kim/nima uchun amalga oshirilgani haqidagi fikrlar bilan yakunlanadi hamda olib borilgan ilmiy izlanish natijalarining ijtimoiy yoki iqtisodiy samarasi haqida fikr bildiriladi. Maqolaning keyingi bo‘limi – maqolaning qisqacha mazmunini aks ettiradi. Rus tilida bu ko‘pincha “Referet”, “Annotatsiya” va ingliz tilida “Abstract”, “Resume”, “Summary”, deb nomlanadi. O‘qilishi darajasi bo‘yicha Annotatsiya maqola sarlavhasidan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Uning vazifasi – potensial o‘quvchilarni maqolaning mazmuniga yo‘naltirish va qiziqtirish, maqolani to‘liq o‘qish uchun istagini uyg‘otishdir. Maqolaga qiziqishi mavjud bo‘lganlarning e‘tiborini jalb qilish uchun sarlavha maqola mazmuniga imkon qadar aniq va to‘liq mos kelishi kerak. Shuning uchun sarlavha uchun so‘zlarni juda ehtiyotkorlik bilan tanlash kerak, ayniqsa ularning mazmuniga, ahamiyatiga va mosligiga e‘tibor berish kerak. Agar sarlavha maqola mazmunini to‘g‘ri yetkazmasa, ushbu maqola mutaxassislar tomonidan hech qachon o‘qilmasligi mumkin. Annotatsiyada maqolaning barcha bo‘limlar bo‘lishi kerak, ammo juda qisqartirilgan shaklda. Agar annotatsiya yaxshi yozilgan bo‘lsa, unda maqolaning mazmuni sizning ishingiz bilan qanday bog‘liqligini tez va aniq bilib olishingiz mumkin. Bu esa maqolani to‘liq o‘qish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qilishga yordam beradi. Odatda annotatsiya hajmi 250 so‘zdan ortiq bo‘lmasligi kerak. Annotatsiya bitta abzas ko‘rinishida yoziladi va quydagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Tadqiqot maqsadi
2. Tadqiqot metodlari
3. Natijalar
4. Asosiy xulosalar

Agar ruhsat etilgan so‘zlarning maksimal soni 250 tani tashkil etsa va siz atigi 100 so‘zdan foydalansangiz, demak, annotatsiya maqolaning mazmunini to‘liq aks etmagan bo‘ladi, Bundan tashqari, annotatsiyaning mazmuni keltirilgan 4 bo‘limni yetarli darajada ko‘rsatish kerak. Maqolada keltirilgan Tadqiqot maqsadini tavsiflash uchun 200 ta so‘z, maqolaning qolgan barcha (3 ta) bo‘limlarining mazmunini yetkazish uchun 50 ta so‘zni ishlatish mumkin emas. Maqola matnida mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni Annotatsiyada keltirilmaydi. Kalit so‘zlar maqolani bazalarda qidirish uchun kerak. Mazmuni va ma’nosi nuqtai nazaridan, kalit so‘zlar annotatsiya va maqolaning mazmuniga yaqin bo‘lishi lozim. Kalit so‘zlar bosh kelishikdagi so‘zlar orqali ifodalanadi. Kalit so‘zlar soni odatda 10 dona atrofida bo‘lishi tavsiya etiladi va odatda jurnal talablari tomonidan belgilanadi.

Sizning maqolangizda sizning tadqiqotingizga bevosita tegishli bo‘lgan barcha manbalarni taqdim etish lozim. Sizning tadqiqot ishingizni tushunish uchun zarur bo‘lgan va faqat maqolaning maqsadi va vazifalarini, tadqiqotning gipotezasini, ishlatilgan tadqiqot usullarni asoslashga xizmat qiladigan barcha nashrlarni (manbalarni) tasvirlab bering. Maqolangiz xalqaro jurnallarning taqrizchilari

tomonidan ijobiy baholanishi uchun keltirilgan manbalarni tanlashda juda ehtiyotkor va sinchkov bo'ling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sodiqova SH. Ilmiy ish asoslari (uslubiy qo'llanma). – T., 2016.27-bet
- 2.Yusupova SH.B. Ilmiy izlanish asoslari (OO'YU filolog talabalari uchun uslubiy qo'llanma). – T., 2016.41-bet
- 3.<https://n.ziyouz.com/kutubxona> – Ziyouz.com kutubxonasi.
- 4.<https://lex.uz/uz/> – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.